



Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

SHARQ MASH'ALI

Jurnal veb-sayti:

<https://orientalstudies.uz/index.php/ot>

SHARQ MASH'ALI



1940-YILLARDA QO‘QON ADABIY MUHITI MANZARALARI

Gulbahor Sayidganiyeva
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi
Toshkent, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: Qo‘qon adabiy muhiti, 1940-yillar adabiyoti, “Yangi Farg‘ona”, Sharif Rizo, Charxiy, Javdat Abdulla, Aziz Qayumov, Qo‘qon Adabiyot muzeyi..

Annotatsiya: Maqolada Qo‘qon adabiy muhitining nisbatan kam o‘rganilgan 1930-40- yillardan keyingi davri mavzusi yoritildi. 1940- yillarda Qo‘qonda adabiy jarayon vakillari haqida ma‘lumotlarni yig‘ish, tegishli manbalar, arxiv ma‘lumotlari orqali davr adabiy muhiti manzarasini tiklash, ijodkorlari haqida ma‘lumot to‘plash va obzor berishni maqsad qildik. Maqolani yozish jarayonida qiyosiy-tipologik, prosopografik, bibliografik, tavsifiy va matn tahlili kabi metodlardan foydalanildi. Davr haqida ayrim shaxslarning xotiralari, shaxsiy arxivlar, gazeta-jurnallar sahifalaridagi ma‘lumotlar, bosma nashrlardan foydalanib tadqiqot olib borildi. “Yangi Farg‘ona” gazetasining Qo‘qon Adabiyot muzeyida saqlanuvchi jildtaxlamlari ham asosiy manba bo‘lib xizmat qildi. 1940-yillarda matbuot, ayniqsa, "Yangi Farg‘ona" gazetasi bu regiondagi yangi adabiy muhit rivojiga katta turtki berdi, ijtimoiy fikr va badiiy ijodkorlik taraqqiyotida muhim rol o‘ynadi, ijodkorlarni birlashtirgan adabiy minbar, kuchli markaz sifatida namoyon bo‘ldi. Manbalar orqali Sharif Rizo, Charxiy, Javdat Abdulla, Aziz Qayumov va boshqa ijodkorlarning ushbu davrdagi asosiy adabiy jarayon ishtirokchilari ekanligi aniqlandi. Bu ma‘lumotlar o‘zbek adabiyotining muhim qismi bo‘lgan adabiy muhit bo‘yicha keyingi kengroq tadqiqotlarga manba bo‘lib xizmat qiladi.

SCENES OF THE KOKAN LITERARY ENVIRONMENT IN THE 1940s

Gulbahor Sayidganiyeva
The Legislative Chamber of the Oliy Majlis
Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Kokand literary environment, literature of 1940, “New Fergana”, Sharif Riza, Charkhi, Javdat Abdullah, Aziz

Abstract: The article covers the topic of a relatively little-studied era of the Kokand literary environment – 1930-40. The collection of materials about the figures of the Kokand literary environment of the 1940s, the restoration of the picture of this literary environment on the basis of reliable sources and archival

Kayumov, Kokand Literary
Museum

data will serve for the review in this article. In the process of writing this article, the following methods were used: comparative typological, prosopography, bibliographic, descriptive and text analysis. The analysis of this era was created on the basis of personal memoirs, materials from personal archives, information from the press, periodicals and printed publications. Stacks of the newspaper "Yangi Farghona" (New Fergana), stored in the Kokand Literary Museum, also served as one of the main sources. In the 1940s, the press, especially the aforementioned newspaper, gave great impetus to the development of a new literary environment and social outlook in the region. The newspaper also played an important role in the development of artistic creativity and was a literary platform, a strong center that united creative figures. Based on sources, it was determined that such creative personalities as Sharif Riza, Charkhi, Javdat Abdullah, Aziz Kayumov and others were the main participants in the era we are considering. The data on the Kokand literary environment presented in the article can serve in the future to create a broader picture of the literary environment, which is an important part of Uzbek literature.

СЦЕНЫ КОКАНСКОЙ ЛИТЕРАТУРНОЙ СРЕДЫ В 1940- ГОДЫ

Гульбахор Сайидганиева

Законодательная палата Олий Мажлиси

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Кокандская литературная среда, литература 1940-г., «Новая Фергана», Шариф Риза, Чархи, Джавдат Абдулла, Азиз Каюмов, Кокандский литературный музей

Аннотация: В статье освещена тема относительно малоизученной эпохи Канадский литературной среды – 1930-40 гг. Сбор материалов о деятелях Канадский литературной среды 1940-годов, восстановление картины данной литературной среды на основе достоверных источников и архивных данных будут служить для обзора в настоящей статье.

В процессе написания данной статьи были использованы следующие методы: сравнительно-типологический, просопография, библиографический, описательный и анализ текста. Анализ указанной эпохи был создан на основе личных мемуаров, материалов из личных архивов, информации из прессы, периодики и печатных изданий. Стопки газеты «Янги Фаргона» (Новая Фергана), хранящиеся в Кокандском литературном музее, также послужили одним из основных источников. В 1940-годы пресса, особенно вышеупомянутая газета, дала большой импульс для развития новой литературной среды и социального воззрения в регионе. Также газета сыграла важную роль в развитии художественного творчества и, являлась литературной трибуной, сильным центром, которая соединяла творческих деятелей. На основе источников было определено, что такие творческие личности как Шариф Риза, Чархи, Джавдат Абдулла, Азиз Каюмов и другие являлись основными участниками рассматриваемыми нами эпохи. Приведенные в статье данные по Кокандской литературной среде могут послужить в дальнейшем для создания более широкой картины литературной среды, которая является важной

KIRISH

Bu yillarga oid adabiy ma'lumotlarning kamligi, deyarli yaxlit ma'lumotlarning uchramasligi ushbu davr Qo'qon adabiy muhiti haqida uzuq-yuluq tassurotlar beradi. Urush yillarida Qo'qonda kimlar ijod qilgan, adabiy jarayonda kimlar ishtirok etgan, degan savol tug'ilishi tabiiy. Ushbu maqolada esa ana shu davrga tegishli bo'lgan manbalar, arxiv ma'lumotlari orqali 1940-yillar Qo'qon adabiy muhiti manzarasini tiklash, ijodkorlari haqida ma'lumot to'plash va davrga obzor berishni maqsad qildik.

Maqola yozish jarayonida qiyosiy-tipologik, prosopografik, bibliografik, tavsifiy va matn tahlili kabi metodlardan foydalanildi.

Davr haqida, avvalo, ayrim shaxslar xotiralari va gazeta-jurnallar sahifalaridagi ma'lumotlar orqali tasavvur hosil qilishimiz mumkin. Jumladan, M.Imomnazarovning "Akademik Azizxon Qayumov maktabi" kitobida ilova sifatida A.Qayumovning 1939-1944-yillar Qo'qon adabiy muhiti to'g'risida xotiralari beriladi. Ushbu manba orqali mashhur ijodkorlar bilan bir qatorda adabiy jarayon uchun noma'lum yoki kam tilga olingan qator ijodkorlar nomi bilan tanishamiz: Charxiy, Javdat, Zarra, Firoqiy, Tahayyur, Xastadil, Shaydo, Nuriy, Davriy, Yahyo Mamatxon, Abdullajon Nasriddinov, Yoriy, Sharif Rizo, Dilshod (A'zam Rizo), Hofiz Yusufiy, Nabi Yusufiy nomlari zikr etilgan. O'sha davr yoshlari Do'stiy, Husayniy, Aziziylar ham Charxiyning shogirdlari sifatida eslanadi¹.

Davrga oid adabiy ma'lumotlarni matbuot arxivi orqali birmuncha yaxlitlashtirish mumkin. "Yangi Farg'ona" gazetasining Qo'qon Adabiyot muzeyi arxivi fondida saqlanib kelayotgan yig'ma jildlarini ko'zdan kechirish 1940-yillar jurnalistikasi va adabiyoti haqida ma'lum bir tasavvurga kelishimizga yordam beradi. Bu yillarda Qo'qonda "Yangi Farg'ona" gazetasi har ikki kunda bir marta 4 sahifada chiqib turgan. Til xususiyatlari hali o'ta rasmiy tusga kirmaganligi sezilib turadi. 1940-yilda kirill yozuvi asosidagi alifboga o'tilganiga qaramay, yanvar oyi ichi gazeta sahifalarida har ikki – lotin va kirill yozuvlaridagi materiallar berilgan.

Bu yillarda Asqarali Hamraaliyev (Charxiy) juda faol ijod qilgan². Adabiy muhit rivojiga nafaqat shahar va tumanlar ijodkorlari, balki shahardan uzoq ketgan ijodkorlar ham hissa qo'shganlar. Masalan, armiya safiga xizmatga ketgan Abduqayyum Rahmonov Belorusiyaning Belostok degan shahridan turib maktub shaklida she'r yozib jo'natgan³.

Jurnalistlardan I.Rahmatullayev, Ali Roziq, Hasan Izzatiy⁴, Izzat Rahmat, O'lmas Ollomurodov kabilar faol bo'lganlar. Bu davrda gazetaga M.Rahmat muharrirlik qilgan. Sahifalarda Charxiy, Amin Umariy tarjimalari bosilgan.

Bundan tashqari, o'zbek adabiyotida prozaning rivoj topishiga Qo'qon adabiy muhiti ijodkorlari katta hissa qo'shdilar. Sahifalarda, ayniqsa, kichik hikoyalar ko'p e'lon qilingan bo'lib, jumladan, Sharif Rizo faoliyati o'zbek jurnalistikasining, prozasining taraqqiy etishida muhim omil bo'ldi⁵ (Sharif Rizo faoliyatini qo'qonlik olim, shoir va jurnalist Adham Olim o'rganib, nomzodlik dissertatsiyasini yoqlagan⁶). Sharif Rizo 1930-1940-yillar Qo'qon adabiy muhitining asosiy adabiy figuralaridan biri, shoir, publitsist-jurnalist, tarjimon, yozuvchi, adabiyotshunosdir. Qori Niyoziy rahbarlik qilgan maktabda

¹ Imomnazarov M. "Akademik Azizxon Qayumov maktabi". – Toshkent: Mumtoz so'z, 2010. – B.183.

² Charxiy. Ming yashasin davrila davronimiz.//Yangi Farg'ona, 1941-yil, 1-yanvar, 1-bet; Archa bayram qo'shug'i. 4-bet; Charxiy va Farhat(Firoqiy)²ning "Navoiyni yodlab" nomli muxammasi, 2-mart soni.

³ Bu she'r gazetaning 29-yanvarsonida 4-sahifa dan o'rin olgan.

⁴ Hasan Izzatiy keyinchalik ikkinchi jahon urushida halok bo'lgan

⁵ Sharif Rizo. Or. Hikoya.//Yangi Farg'ona, 1941-yil, 17-mart. - №. 64- B. 3

⁶ Sharif Rizo va uning davri, keyingi davrlar adabiy muhiti haqidagi juda ko'p ma'lumotlar uchun Adham Olim dan minnatdormiz. Adibdan 23.04.2017 va 30.04.2017 kunlari yozib olingan audiointervyular chog'ida o'z xotiralardan ko'p voqealar, qimmatli ma'lumotlarni aytib berdilar.

Qo'qondan yetishib chiqqan "O'n uch qaldirg'och" ning biri bo'lib, uning "Qor yog'di, izlar bosildi" qissasi mashhur. Adham Olim uning "Qum" romani borligini, ammo bosilib chiqmaganini aytadi. Sharif Rizoga G'afur G'ulom, Hamid Olimjon, Uyg'un, Nazir Safarovlar yozgan maktublar saqlangan⁷. Bu maktublar Qo'qondagi o'sha paytdagi Andreevka tupik ko'chasi, 8-uyga Sharif Rizo nomiga kelgan. Shu yillari "Yer yuzi" jurnalining 9 ta soni Qo'qonda "Yangi Farg'ona" tahririyati qoshida chiqarilgan. Sharif Rizo 1913-yildan boshlab Xalqaro maydonda rivojlanib borgan xalqaro ekstremizm, odam savdosi, qo'poruvchilik kuchlari, harakatlariga bag'ishlab turkum she'rlar, hikoya, qissa, povestlar yozgan⁸ (masalan, "Doktor Verdi yoki quloq og'rig'ining dorisi", "Myunxenlik savdogar" kabi povestlari Adham Olim tomonidan o'rganilgan. Sharif Rizo o'zi foydalanishi uchun arab yozuvining takomillashtirilgan nusxasini o'ylab topgan, buni Adham Olim mutaxassis topib, olti oy davomida o'qib, uch nusxada mashinkada tergan).

40-yillar adabiyotida Husayn Shams ijodi ham alohida o'rin tutadi. Husayn Shamsuddinov Qo'qon shahrida kosib oilasida dunyoga kelgan. "Abadiyat daraxti"⁹ da 11 yoshidan Qo'qondagi "Sadoi Farg'ona" gazetasi bosmaxonasida ishlagan deb ma'lumot beriladi. Uning "Signal", "Dastgoh hayqirig'i", "Qurilish" (1930-1932) she'riy to'plamlari, "Dushman", "Huquq" romanlari (1934-1936) bosilib chiqqan va mashhur bo'lgan. Husayn Shams nafaqat Qo'qon adabiy muhitida, balki butun o'zbek adabiyotida o'ziga xos o'rin tutgan yozuvchi bo'lib, o'zbek nasri taraqqiyotiga hissa qo'shgan¹⁰.

Usmon Nosir (1912-1944) Namangan shahrida tug'ilgan. Unga "Abadiyat daraxti" almanaxida "bahor chaqmog'idek bir kelib ketgan shoirlardan" deb ta'rif beriladi¹¹. Qo'qondagi bolalar uy-internatida maktab ta'limini olgan. 1931-yilda esa Samarqand davlat universitetining til va adabiyot fakultetiga o'qishga kiradi. U ko'plab she'riy to'plam va dostonlar, dramatik asarlar, maqolalar, ocherklar muallifidir. A.S.Pushkinning "Bog'chasaroy fontani", M.Yu.Lermontovning "Demon" asarlarini mahorat bilan o'zbek tiliga tarjima qilgan. "Naxshon" dostoni mashhur. Uning "Yurak", "She'rim" kabi qator she'rlari o'zbek she'riyatining yorqin namunalari safidan o'rin olgan.

Amin Umariy (1913-1942) – Qo'qon shahrida tug'ilgan. Uning ijodiga ko'ra yoshlik va bahor kuychisi deb baho berilgan. O'rta maktabdan so'ng Samarqand davlat universitetida tahsil olgan. Uning "Yangroq sadolar", "Asad", "She'rlar", "Sadoqat", "Bolalik qo'shiqlari", "Qozon yo'lida", "Farzand" kabi to'plamlari bor. Komil Yashin bilan hamkorlikda "Hamza" she'riy dramasi yaratgan. Amin Umariy M.Lermontov va Isakovskiyning talay she'rlarini, Ostrovskiyning "Momaqaldiroq", M.Gorkiyning "Yegor Bulichev va boshqalar" pyesalarini o'zbek tiliga tarjima qilgan.

Charxiy, Javdat Abdulla kabi faol ijodkorlar qatoriga 40-yillarda yosh Aziz Qayyumov ham qo'shiladi. U shahardagi 3-maktabning o'quvchisi bo'lgan chog'idanoq ravon she'rlar yozib ko'zga ko'rinish boshlaydi¹². Aziz Qayyumov¹³ o'z ijodini Charxiyga o'xshatma she'rlar yozishdan boshlaydi¹⁴.

Sulton Abdulla nomli shoir ham bu yillarda o'z o'quvchilarini topdi. Uning she'rlari badiiy jihatdan pishiqligi, nafis tasvirlar, tashbehlarga boyligi, ravon vazni bilan kishi diliga zavq beradi. Charxiy, Sobir Abdulla, Javdat Abdulla kabi ustozlar, Aziz Qayyumov kabi yosh ijodkorlar aruz vaznining o'ynoqi vaznlarida yozgan bo'lsalar, Sulton Abdulla barmoq vaznida yozgan.

Bayram sonlarida ham Aziz Qayyumovning she'rlarini ko'ramiz. Masalan, 1941-yilning 1-may sonida uning "Bayramimizdir bugun", Hafiz Yusufiyning "Shonli bayram" she'rlari e'lon qilingan. Har ikkala she'r ham aruzda, Aziz Qayyumov she'ri muxammas shaklida, Hafiz Yusufiy she'ri murabba' ko'rinishida yozilgan. Ammo H.Yusufiy she'ri qofiyasi murabba'dagi kabi aab, vvvb va hokazo tarzida

⁷ Manba: Adham Olim bilan suhbat audioarxivi. 2017-yil, 23-aprel

⁸ Manba: Adham Olim bilan suhbat audioarxivi. 2017-yil, 23-aprel.

⁹ Abadiyat daraxti. Drevo vechnosti. Kollektiv to'plam. – Toshkent: Adabiyot va san'at, 1989. – B.24.

¹⁰ Ushbu ikki ijodkor haqida ma'lumotlar "Abadiyat daraxti" kitobidan olindi.

¹¹ Abadiyat daraxti. Drevo vechnosti. Kollektiv to'plam. – Toshkent: Adabiyot va san'at, 1989. – B.50.

¹² Javdat. Aziz Qayyumov. Bahor qo'shiqlari. // Yangi Farg'ona, 1941-yil, 1-aprel. - №77.

¹³ Keyinchalik akademik mavqeiga erishgan ustozimiz Aziziy taxallusi bilan she'rlar yozgan. Aziz Qayyumov tarzida ham she'rlari gazetada bosilgan. Keyinchalik Qayyumov yozilgan.

¹⁴ Gazetaning 1941-yil, 20-aprel soni.

emas, aaba, vvgv tarzida qofiyalangan. Yuqorida tilga olingan she'rlar tarkibida "muzikasoz", "kanol" kabi yangi so'zlar ko'p qo'llangan. Bu hodisalar o'zbek she'riyatining an'analar doirasidan chiqib, yangi she'riyat an'alarini o'zlashtirayotgan davr mahsuli ekanligini ko'rsatadi.

Nazm, nasr bu yillarda gurrkirab rivojlandi. Usmonali Zanjiralinig "Gulbodom" nomli kichik hikoyasiga ko'zimiz tushadi. Unda Gulbodom ismli yetim qiz taqdiridan hikoya qilinadi. Bu kichik asarda ham davrning yetakchi mafkurasi ko'zga tashlanadi, ya'ni qizning sho'ro zamoniga kelibgina, internatda tarbiyalanib baxt topganligi aks ettiriladi¹⁵.

Shu bilan birga, publitsistik janrlardan felyeton ham rivoj topib bordi. Biz 30-yillar adabiy muhitida Usmon Qo'zi taxallusli jurnalist felyetonlari bilan tanishgan edik. 40-yillarda ham u felyetonlari, ocherklari bilan qatnashdi¹⁶.

Abdulla Hushyor nomi ham adabiy muhitda o'z o'rniga ega (Hushyor, Abdulla Raufiy, Abdulla Hushyor taxalluslari bilan she'rlar yozgan). Uning ijodi hali aruz o'z mavqeini yo'qotmaganligidan dalolat beradi¹⁷.

Qo'qon adabiy muhiti bilan nafaqat qo'qonlik shoirlar, balki boshqa ustoz ijodkorlar hayoti ham bog'langan edi. Ayniqsa, G'afur G'ulom hayotining juda ko'p qismi Qo'qonda o'tgan. Shu yerda adabiy muhit ichida ijodi kamol topgan. Shoirning bizga ma'lum "Seni Vatan kutadi" she'rining o'zgartirilgan varianti "Seni dunyo kutadi" nomi bilan Qo'qon gazetasida bosilgan¹⁸.

Bu yillarda epistolyar janr ham rivoj topdi. Jumladan, armiya safida xizmat qilayotgan askarlardan ona vataniga ko'plab xatlar kelib turar, shulardan ayrimlari gazetada e'lon ham qilinardi¹⁹.

Ikkinchi jahon urushi yillarida Qo'qon adabiy muhitida ayniqsa, jangovar lirika va proza rivojlandi. Frontdagi yozuvchi-shoirlar front gazetalarini chiqardilar, jangchilar ruhiga ta'sir etadigan asarlarini yozdilar. Ko'plab qo'qonlik jurnalistlar, yozuvchilar bu urushda qatnashib halok bo'ldilar. Bular orasida yozuvchi G'ulomnazir G'ofurov (1909-1944) ("Mushtum" jurnalining sobiq redaktorlaridan biri, uning frontdagi faoliyati haqida Mumtoz Muhamedovning "Inson madhi" xotirasi juda ta'sirli yozilgan)²⁰, Hasan Izzatiylar (1900-1945) bor edi²¹.

Front ortidagi shoir-yozuvchilarning asarlari mavzusi ham urushga bag'ishlandi. Urushning dastlabki kunlaridanoq jurnalistlar qalami dushmanga nafrat, Vatan himoyasi uchun chaqiriqlar tarzida xizmat qildi. Shoirlardan Javdat Abdullaning "G'azab sharorasi" she'ri ana shunday davr kayfiyatini belgilaydigan asarlardan edi²². Gazeta sahifalarida berilgan materiallar, e'lonlar xalq ruhini ko'tarinki holatda saqlashga qaratilgan. Hatto dorboz o'yinlari, madaniyat-istirohat bog'idagi xalq sayillari ham urush tufayli to'xtatib qo'yilmagan.

1940-yillarning o'rtalarida Aziz Qayumov juda faol tarzda she'rlar yoza boshlaydi. Gazetada "G'alaba taronasi" (1944, 19-yanvar, №8), "Xush keldingiz (Frontdan qaytgan do'stinga)" (1944, 16-fevral, №19) Charxiy bilan birga yozgan "Qasamimiz chin ko'ngillar qarori" (1944, 18-fevral), "Shavkatnishopim armiyam" (1944, 28-fevral) kabi masnaviy ko'rinishidagi she'rlari tinimsiz e'lon qilinib turadi (o'sha yillari bosh muharrir Izzat Rahmat edi). Uning "Yangi yil qasidasi" she'ri siyosiy ruhda bo'lsa ham, aruzda yozilganligi, unda o'ziga yarasha tashbehlar qo'llanganligi bilan kishiga zavq beradi:

Zafarlar ta'limin tarix yangi avlod uchun yozgil,
Yigirmanchi kitobingning qirq to'rtinchi bobinda.

Shoir XX asrni kitob deya, 44-yilni esa qirq to'rtinchi bob deya badiiy san'at, ya'ni istiora san'atini o'rinli qo'llamoqda. Aziz Qayumovning ijodga kirib kelishi haqida otasi Po'lodjon domulla

¹⁵ Usmonali Zanjirali. Gulbodom. //Yangi Farg'ona. - № 42. B.3

¹⁶ Usmon Qo'zi. Schetning rioyasizligi. Yarim jiddiy felyeton. //Yangi Farg'ona, 1941-yil, 21-aprel. - №95.

¹⁷ Hushyor. Yangi Farg'ona. //Yangi Farg'ona, 1941-yil, 5-may. - №. 105.

¹⁸ G'afur G'ulom. Seni dunyo kutadi. //Yangi Farg'ona, 1941-yil, 23-may. - №. 120- B. 3

¹⁹ Iminov Yo. Xat. //Yangi Farg'ona, 1941-yil, 27-may. - №123. - B.3.

²⁰ Muhamedov M. Inson madhi // O'tkir edi qalami. - Toshkent: O'zbekiston, 1965. - B.7-16.

²¹ Rasul Muhammadiy. Kurash bilan o'tgan umr // O'tkir edi qalami. - Toshkent: O'zbekiston, 1965. - B.81

²² Javdat Abdulla. G'azab sharorasi. //Yangi Farg'ona, 1941-yil, 29-iyun. - № 152. B.3

Qayyumov o'zining "Tazkirai Qayyumiy" kitobida yozadi: "Adabiy sohaga muhibligi bobomdan qolgan kitoblardan ma'lum bo'lsa-da, shoirlig butun ko'ringani yo'qdur. Faqat she'r Aziziyda ko'rindi. She'riy ijodiga rahbar ustoz domulla Asqarali Charxiydir"²³. Bu kitobda Aziziyning 4 ta she'ri, ya'ni 1 g'azal, 2 muxammas, 1 ta Navoiyning 500-yilligiga bag'ishlangan yana bir muxammasi keltirilgan bo'lib, nashrga Aziz Qayyumovning o'zi tayyorlagan.

Jangovar lirika rivojida Abdulla Raufiy (Hushyor) ning ham hissasi bor²⁴. Uning "Qahramon armiya" (1944, 19-mart) she'ri, S.Shokiriy (Mavzun)ning "Yoz qalam!" (1944, 24-mart) she'rlari buning misolidir.

Qo'qon adabiy muhitida va respublikada taniqli bo'lgan shoir Madamin Davron (1912 -yilda tug'ilgan, vafoti 1970-yillar so'ngida) esa 1930-1940-yillar Qo'qon adabiy muhiti va o'zbek adabiyotining taniqli ijodkorlaridan. Ismi Muhammad Amin bo'lib, Qo'qonning Beshariq mahallasida yozuvchi va shoir Ibrohim Davron oilasida tug'ilgani haqida "Tazkirai Qayyumiy"da ma'lumot keltirilgan. Ibrohim Davronning ikkinchi o'g'li, Nasrullo Davronning akasi. Juda mashhur shoir bo'lgan, 6 ta she'riy to'plam, tarjima asarlar muallifidir. Toshkentda Yozuvchilar uyushmasida ishlagan.

Adabiyotshunos olim Naim Karimov xotiralariga ko'ra Madamin Davron Abdulla Qahhor, Amin Umariy, Usmon Nosir bilan do'st bo'lgan, birga faoliyat olib borgan. To'rtalari Toshkentda O'qchi mahallada bir joyda yashashgan. Uning ma'rifatparvar shoir Ibrohim Davronning o'g'li ekanligi, Usmon Nosir, Amin Umariy, Temur Fattoh, Ibrohim Naziriy kabi qo'qonlik shoirlar bilan birga ulg'ayib ijodga kirib kelgani, faoliyati haqida olim Naim Karimov o'z maqolasida batafsil yozadi²⁵.

Madamin Davron aruzda va barmoq vaznida she'rlar yozgan. "Tazkirai Qayyumiy"da ham u haqda ma'lumot beriladi va Fuzuliy g'azallariga ikki muxammasi keltiriladi²⁶. M.Davron avval Farg'onada ta'lim-tarbiya texnikumida, keyin Samarqandda Akmal Ikromov nomidagi Pedagogika akademiyasida o'qiydi. Keyin esa Til va adabiyot ilmiy-tadqiqot institutining ikki yillik aspiranturasini tugatadi. 1934-yilda Toshkentga ko'chib kelib, "Guliston" jurnalida adabiy xodim, mas'ul kotib vazifalarida ishlaydi. 1940-yildan Yozuvchilar uyushmasi tarjima sho'basida maslahatchi bo'lib ishlaydi. Uni o'z davrida shoir, tarjimon, adabiy tanqidchi sifatida bilardilar. 1942-yilda shoir armiyaga chaqiriladi. Naim Karimov o'z maqolasida shu munosabat bilan Hamid Olimjon tomonidan unga yozilgan tavsifnomani keltiradi. Bu tarixiy hujjatda M.Davronga o'ta ijobiy ta'rif berilib, uning ijodiga yuksak baho beriladi va ijodi bilan fashist bosqinchilariga qarshi kurashda kerak bo'lishini ta'kidlaydi. Madamin Davron qayerda jangda bo'lmasin, ijod namunalarini yuborib turadi.

1943-yilda uning Kursk ostonalarida halok bo'lgani haqida xabar keladi, ammo u nemislarga asir tushib Germaniyaga olib ketilgan edi. 1947 yilda vatanga qaytadi, biroq uni xoin sifatida qabul qiladilar, 7 yilga Sibirga qamoqqa yuboradilar, keyin yana 3 yil o'rmon sanoatida ishlashga majbur bo'ladi. 1957-yilda Toshkentga qaytib kelib uyushmaga a'zolikini tiklashga yozgan arizasini rad etadilar, asarlari bosilmaydi, ishga kirolmaydi. N.Karimov bilan suhbatda urushgacha M.Davron, U.Nosir, A.Qahhor, A.Umariy to'rtalasi Toshkentning O'qchi mahallasida birga yashaganliklari, qamoqdan qaytgach esa umri so'nggida radiokomitetda ishlagani, G'afur G'ulom nashriyoti ortidagi uyda yashagani ma'lum bo'ldi²⁷. Vafot yili noma'lum, Uni tanigan Ahmadjon Madaminov, Naim Karimov, Xurshid Do'stmuhammad 1974-yilda hayot bo'lganligini aytadilar.

Adabiy hayot haqida, adabiy jarayonni rivojlantirayotgan shoirlar haqida shu muhit ichidagi ijodkorlar yozib turganlar. Jumladan, Javdat Abdulla qalamiga mansub "Qo'qonning keksa shoiri" nomli maqola shoir Yoriy ijodiga bag'ishlanadi²⁸. Yoriy bu vaqtda hayot bo'lgan. Gazetaning shu sonida Charxiy va Aziz Qayyumovning "Qahramonimiz keldi" she'ri bosilgan bo'lib, qahramon To'xtasin

²³ Qayyumov Po'lotjon domullo. Tazkirai Qayyumiy. 3-jild. - Toshkent, 1998. - B.664-668.

²⁴ Ushbu ijodkor nomini "Tazkirai Qayyumiy"ning 3-jildi 670-sahifasida uchratamiz.

²⁵ <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/adabiyot/naim-karimov-ezoz-va-jazo-1990/>

²⁶ Qayyumov Po'lotjon Domullo. Tazkirai Qayyumiy. 3jild. - Toshkent, 1998. - B.662.

²⁷ Ma'lumotlar Naim Karimov bilan 22.02.2022 kuni bo'lgan suhbat audioyozuvida mavjud.

²⁸ Javdat Abdulla. Qo'qonning keksa shoiri. //Yangi Farg'ona, 1941-yil, 9-aprel. - B.2

Boboyevga bag'ishlangan. Bu odamga bag'ishlab boshqa shoirlar ham she'rlar yozganlar. Jumladan, Havoxon Otaqulovning "To'xtasin Boboyevga" nomli she'ri shu jumladandir²⁹.

Ahmad Mamajonovning "Dilbarga noma"³⁰ she'ri ham ta'sirchan, samimiy va lirizmga boyligi, ravonligi bilan diqqatni tortadi. Uni bevosita jang maydonlarida ishtirok etib turgan kishi yozganligi ham sezilib turadi. Muallif bu she'rning tagiga Moskva shahrida yozganligini qayd etadi.

Bu yillarda maqola va hikoyalar bilan qatnashgan Isroil Aminov nomi ham uchrab turadi. Uning "Vafoli yori" hikoyasi³¹ da o'sha davr uchun xos bo'lgan holat – urushga ketgan yigit Rustam va uning vafoli yori Adolatxon taqdiri hikoya qilinadi. Hikoya baxtli yakun topadi – urushda ikki yil bedarak ketgan Rustam orden mukofotini olib qaytadi.

Yuqoridagi she'rlarda ham, hikoyalarda ham obrazlar o'ta ijtimoiylashgan holda tasvirlangan. Ijodda ko'ngildagi lirik tuyg'ular emas, ijtimoiy tuyg'ular, mafkura birinchi o'rinda turadi.

1940-yillarning oxiriga borib adabiy asarlar o'ta siyosiydashganligi seziladi (1930-yillarda to'rt sahifadan iborat bo'lgan gazeta ham ikki sahifali bo'lib qolgan. Bunga urush tufayli qog'oz taqchilligi yuzaga kelgani sabab bo'lishi mumkin. Lekin hajm kamaygani bilan, u har ikki kunda chiqishda davom etgan. Bu yillarda gazetaga Ibodulla Rahmatullayev redaktorlik qilgan). Bu yillarda asta-sekin jurnalistlar qatoriga yangi nomlar qo'shila borganini kuzatish mumkin. Jumladan, Adham Olim³² nomi ham birinchi marta ko'zga tashlanadi. Shuningdek, bu yillarda Ali Roziq,³³ Ahmadjon Olim, Mansur Hoshim (Mansur, H.Mansur taxalluslari bilan ham chiqqan) kabi jurnalistlar ancha faol qatnashganlar. Adabiy jarayonda qo'qonlik taniqli jurnalist Sharif Rizo nomi tez-tez ko'rinadi³⁴. U "El nazar qilgan qilgan yigit"³⁵ kabi maqolalari bilan chiqishlar qiladi.

Umuman, bu davrlarda gazetada tanqidiy maqolalar ko'payganligini va felyeton janri har doimgidek dolzarbligini ko'ramiz. Masalan, Rib taxallusli muallif yozgan "Sodirdan nima sodir bo'layotir?" nomli kichik felyeton³⁶, Nasrullo Davronning "Xo'ra"³⁷, "Attorning qutisimi, vrachning cho'ntagi?"³⁸, "Kalavalashgan ishlar"³⁹ felyetonlari shular jumladandir. Nasrullo Davron "Shaharimizning shuhrati"⁴⁰ maqolasida Qo'qon adabiy muhiti haqida ahamiyatli fikrlarni yozadi.

Juda faol bo'lgan M.A'zam, A'zam Muhammadiy taxalluslarini qo'llagan jurnalist nomi 1940-yillar jurnalistikasida uchraydi. Aniqlashimizcha, bu qo'qonlik shoir, mustaqillik davrida uzoq yillar "Qo'qon sadosi" tahririyatida (oldingi "Yangi Farg'ona") mas'ul kotib bo'lib ishlagan Abdulhamid A'zam (Abdulhamid Muhammadiyev)ning otasidir⁴¹.

Gazeta arxivini kuzatar ekanmiz, maqolalar ostida Yunusjon, Yu.Nurmat nomi bilan maqolalar yozgan jurnalist, shuningdek, Sh.Boborahim nomlari ko'p uchraydi. Mas'ul muharrirlar B.Jalolov (Bahodir Jalolov)⁴², Izzat Rahmat⁴³lar ham faol edilar.

²⁹ Yangi Farg'ona, 1941-yil, 12-aprel soni

³⁰ Yangi Farg'ona, 1941-yil, 26-aprel soni

³¹ Yangi Farg'ona, 1941-yil, 16-aprel soni.

³² Sharif Rizo haqidagi kitob muallifi, adabiyotshunos, filologiya fanlari nomzodi, taniqli qo'qonlik jurnalist.

³³ 1948-yil, avgust sonlarida A.Roziqov vaqtincha mas'ul muharrir ham bo'lgan.

³⁴ Sharif Rizo haqida qo'qonlik shoir va olim Adham Olim bilan 23.04.2017 kungi suhbat audioyozuvida ma'lumotlar bor.

³⁵ 1947-yil, 16-fevral soni.

³⁶ 1947-yil, 4-iyul

³⁷ 1947-yil, 28-sentyabr

³⁸ 1947-yil, 1-oktyabr

³⁹ 1947-yil, 29-oktyabr

⁴⁰ 1947-yil, 12-noyabr

⁴¹ Adabiyot muzeyi arxiv materiallarini ko'rgan chog'imizda shoimning o'zi tashrif buyurgan, u bilan savol-javob orqali bu jurnalist uning otasi ekanligi aniqlangan.

⁴² B.Jalolov nomi tez-tez uchraydi. Bu inson 1940-yillarda mashhur bo'lgan. U bu yillarda o'qituvchilar instituti o'zbek tili va adabiyotika fedrasining mudiri, keyinroq rektor ham bo'lgan. Bu institut keyincha o'g'il bolalarni ham o'qishga qabul qila boshlagan. 20, 22-avgust sonlarida institut erlarni ham qabul qila boshladi degan e'lon beriladi. Gazetada ba'zan mas'ul muharrir ham bo'lgan.

⁴³ Uning uyi Qo'qon shahridagi Qaymoqli guzar hududida ekanligini muzey direktori A.Turdialiyev eslaydi.

She'riyat sohasida Nasrullo Davron⁴⁴ nomi tez-tez ko'rina boshlaydi⁴⁵. Badiiy adabiyot kengroq rivoj topa boshlaydi. Charxiy, Davriy,⁴⁶ Chustiy asarlari paydo bo'ladi. Keyingi yillarda ham Nasrullo Davron faollik ko'rsatadi⁴⁷. Shuningdek, Chustiy, Mavzun (Siddiq Shokirov)lar ham faol qalam tebratadilar.

Felyeton har doimgidek dolzarb mavzularni olib chiqadi. I.Ribning "Xuruj", "Chovondo", "Mosh-kichiri"⁴⁸ nomli felyetonlari, undan tashqari, D.Nasrulloning "Mahmadona", "Yolg'onchi"⁴⁹, S.Ermatovning "To'tiyo odam"⁵⁰, Ibratning "Qo'y og'zidan cho'p olmagan yigit"⁵¹ felyetonlari davr manzarasini tasavvur qilishga yordam beradi.

Qo'qonda lirik she'rlar yaratilgan bo'lsa ham, gazeta sahifalarida faqat siyosiy she'rlar ko'rinadi. Nasrullo Davronning "Zebo"⁵², Davriyning "Chechan qiz"⁵³ she'rlari bosilgan. N.Davron she'ri aruzda yangi zamon g'oyalariga monand yozilgan, unda o'qib ilm olishga chaqiriq ruhi bor. Gazeta sahifalarida karikaturalar ham paydo bo'ladi. Misol tariqasida "O'rtoq Donskoyning chopqir oti" nomli karikaturni keltirish mumkin (27-avgust soni). Asta-sekin yoshlar ham adabiyotga kirib kela boshlagani seziladi. 1-sentyabr sonida maktab o'quvchilarining she'rlari ham e'lon qilingan.

XX asr ijtimoiy-siyosiy hayoti adabiyot rivojida tub o'zgarishlarga, yangi o'zbek adabiyotining yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. Bu davrda shoir-yozuvchilar yangi an'analarni adabiyotga olib kirdilar. Biroq bu jarayonda qadimiy an'analarni davom ettirib kelgan shoirlarimiz ham ijod qildilar va o'z o'rinlariga ega bo'ldilar. Bulardan biri qo'qonlik shoir mavlono Charxiy edi. U o'z ijodida qadim g'azal janrini, ko'hna aruz an'alarini davom ettirdi. Shu bilan birga, unga yangi mazmun bag'ishladi, yangi davr manzaralari va ruhini singdirdi.

"Yangi Farg'ona" gazetasining Qo'qon Adabiyot muzeyida saqlanayotgan yig'ma jildini kuzatish jarayonida Charxiyning 1949-yil sonlaridan birida nashr etilgan "Telefon" (Qo'qondagi telefonlar va telefon stansiyasining ishi haqida felyeton) nomli asari diqqatimizni tortdi⁵⁴. Shoirning shu paytgacha nashr etilgan birorta to'plamida uchramagan bu she'rda Qo'qon shahridagi telefon stansiyasi ishi va telefonistkalarining muomalasi tanqid qilinadi. Bu she'riy felyeton haqida e'lon qilgan maqolamizda Charxiyning yangi topilgan asari sifatida baholash va uni o'quvchilarga ma'lum qilishni ma'qul topdik⁵⁵.

Nashr etilgan she'rlarning aksariyati ijtimoiy hayot manzaralarini, turmush yangiliklarni tarannum etadi. Masalan, shu yil 18-fevralda bosilgan Chustiyning "Traktor" she'ri⁵⁶, 20-fevral sonida sud saylovlari, sudning odilligi haqida yozilgan "Sud sayloviga" degan she'rlari shundan dalolat beradi⁵⁷.

⁴⁴Ibrohim Davronning o'g'li. 1990-91 yillarda vafot etgan. Usmon Nosirdan oldin tug'ilgan bo'lishi kerak. A.Madaminov I.Davronning "Ash'ori nisvon" asaridagi xotinlar tilidan yozgan she'rlarini aniqlagan. Madamin Davron degan tarjimon va shoir akasi haqida yuqorida yozdik. ziyouz.uz saytida "Fan va turmush" jurnalining 1990-yil, 10-sonidan olingan adabiyotshunos olim Naim Karimovning "E'zoz va jazo" nomli maqolasi chop etilgan bo'lib, unda Madamin Davron haqida to'liqroq ma'lumot keltiriladi. <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/adabiyot/naim-karimov-ezoz-va-jazo-1990/>

⁴⁵ Nasrullo Davron. Tabriknoma // Yangi Farg'ona, 1947-yil, 5-oktyabr.; Nasrullo Davron. "Qiz va yigit" aytishuvi. // Yangi Farg'ona, 1947-yil, 26-oktyabr.

⁴⁶ Davriy Charxiyning shogirdi, Qo'qon rayonidan degan ma'lumotlar uchraydi.

⁴⁷ Nasrullo Davron. Yangi yil qo'shig'i. // Yangi Farg'ona, 1948-yil, 1-yanvar.; Nasrullo Davron. Men ham askar edim. // Yangi Farg'ona, 1948-yil, 23-fevral.

⁴⁸ I.Rib. Xuruj. // Yangi Farg'ona, 1948-yil, 5-mart.; I.Rib. Chovondo. // Yangi Farg'ona, 1948-yil, 11-aprel.; I.Rib. Mosh-kichiri. // Yangi Farg'ona, 1948-yil, 1-avgust.

⁴⁹ D.Nasrullo. Mahmadona. // Yangi Farg'ona, 1948, 29-avgust.; D.Nasrullo. Yolg'onchi. // Yangi Farg'ona, 1948, 12-sentyabr.

⁵⁰ Ermatov S. To'tiyo odam. // Yangi Farg'ona, 1948, 5-sentyabr. Gazetaning 3-oktyabr sonida "To'tiyo odam"ga "Yangi Farg'ona"ning signallari izidan" bo'limida javob e'lon qilingan.

⁵¹ Ibrat. Qo'y og'zidan cho'p olmagan yigit. // Yangi Farg'ona, 1948-yil, 12-yanvar.

⁵² Nasrullo Davron. Zebo. // Yangi Farg'ona, 1948, 30-may.

⁵³ Davriy. Chechan qiz. // Yangi Farg'ona, 1948, 20-avgust.

⁵⁴ Charxiy. Telefon. // Yangi Farg'ona. – 1949, 16-fevral. - №20 (5298). – B.2.

⁵⁵ Gulbahor Said G'ani. Charxiyning "Telefon"i necha marta yozilgan? // "Sharq yulduzi", 2021. - №9. – B.155-157.

⁵⁶ Yangi Farg'ona. – 1949, 18-fevral.

⁵⁷ Yangi Farg'ona. – 1949, 20-fevral.

U davrlarda sudyalari xalq tomonidan saylangan. Bunday she'rlar qatoriga 27-fevral sonida bosilgan Sobir Abdulloning "Lavlagi taronasi" she'rini ham kiritish mumkin⁵⁸.

Rahim Hamdamning nomi ham maqolalar bilan ko'rina boshlagan. Yangi paydo bo'lgan muallif sifatida maqolalar bilan qatnashgan Vahob Rauf nomini uchraydi. Maqolalar muallifi sifatida Yu.Nurmat, A.Ubayjon A.Muhammadiy, A.Rahmat nomlari ko'p uchraydi. B.Jalolov, A.Roziqlar juda faol bo'lgan. 19-avgust sonida B.Jalolovning Hamza ijodiga bag'ishlangan maqolasi e'lon qilingan. Bu materiallar Hamzadan inqilob kuchchisi obrazini yasash jarayonlarini aks ettiradi. Xuddi shu ma'noda 2-oktyabr sonida K.Yashinning ham Hamza haqidagi maqolasi bosilgan.

Felyeton va tanqidiy ruhdagi maqolalar dolzarbligini yo'qotmagan. 24-avgust sonida S.Ermatovning felyeton janridagi "Och bo'ring sarguzashti" asari bosilib chiqqan⁵⁹. 28-avgust sonida esa "Yosh qizni erga beruchilar jazolandi" nomli Yu.Nosirovning maqolasi e'lon qilingan⁶⁰. Bu juda qiziq hodisa, aslida fojia sifatida baholanishi mumkin.

Yil davomida turli mavzulardagi she'riy asarlar bosilib turgan (Biroq nasriy asarlar ko'rinmaydi). Jumladan, 1-may sonida S.Shokirov (Mavzunning)⁶¹ "Yashnadi" nomli she'ri bosilgan. 5-oktyabr sonida Javdat Abdulloning "Hamzani yodlab" she'ri, 7-noyabr sonida V.Raupovning "Oktyabr quyoshi" she'ri, 4-dekabr sonida Nasrullo Davronning "Baxt kitobi" nomli konstitutsiyaga bag'ishlangan she'ri e'lon qilingan.

O'tgan XX asrning 1930-yillarida Qo'qon adabiy muhiti butun Farg'ona vodiysida, aniqrog'i, butun respublikada adabiyot beshigi sifatida namoyon bo'ldi. Yangi janrlarning adabiyotga kirib kelishi, adabiyotning shaklan va mazmunan yangilanishi, mavzular rang-barangligi kuzatiladi. Qo'qonda yozuvchilarning katta bir avlodi yetishib chiqdi.

O'zbek klassik adabiyoti sahifalarini boyitgan, adabiyotning oltin beshigini tebratgan Qo'qon adabiy muhiti XX asrga kelib ham yangi bir shiddat bilan rivoj topdi. Yangi o'zbek adabiyotining yuzaga kela boshladi. 1933-yilda Qo'qonda Toshkentdagi Yozuvchilar uyushmasining bo'limi tashkil etildi va Qo'qon Yozuvchilar soveti deb ataldi, ijodkorlarni birlashtirdi.

Bu yillarda Qo'qondan Sharif Rizo, Usmon Qo'zi, Nabi Yusufiy, Mamajon Qodir, Rasul Nosirov, A'zam Rizo, H.Mavlonov, I.Yunusov, M.Qobilov, Lutfullo Olimiy, Ashurali Zohiriy, Hasan Izzatiy, Rasul Muhammadiy, Nabi Yusufiy kabi jurnalistlar, Abdulla Qahhor, Usmon Nosir, Sotti Husayn, Amin Umariy, Husayn Shams, G'ulom G'ofur, Adham Rahmat kabi ijodkorlar yetishib chiqdi va keyinchalik o'zbek adabiyotining taniqli namoyandalari sifatida kamolga yetdilar.

O'sha davrda yaratilgan ko'pchilik asarlar yangi turmushni maqtash bilan shug'ullanadi. Oz bo'lsa-da, zimdan sho'ro davri mafkurasi, siyosatiga qarshi fikrni ayta olganligi ham mavjud bo'ladi. 1940-yillardagi Qo'qon adabiy muhiti manzarasi ilmiy adabiyotlarda uchramas edi. Mazkur ishimizda ko'plab gazeta jildtaxlamlari va boshqa manbalar asosida ushbu davrning ijodkorlari va muhit haqida ma'lumotlar yig'ildi.

XULOSA

Yuqoridagilardan ko'rinadiki, XX asr boshida Qo'qonda vujudga kelgan matbuot bu regiondagi yangi adabiy muhitning shakllanishi va rivojiga, Qo'qon adabiy muhitining yangidan tug'ilishiga katta turtki berdi. "Yangi Farg'ona" "Sadoi Farg'ona"ning uzviy davomchisi sifatida Qo'qon, Farg'ona matbuotining, umuman, o'zbek matbuotining rivojida, ijtimoiy fikr va badiiy ijodkorlik taraqqiyotida muhim rol o'ynadi. "Yangi Farg'ona" gazetasi ijodkorlarni birlashtirgan adabiy minbar, kuch sifatida maydonga chiqdi, o'zbek jurnalistikasini rivojlantirdi. Ushbu holatlar Qo'qon adabiy muhiti davr bilan hamnafas yashaganligini, matbuot ayni muhit uchun minbar sifatida o'rinli xizmat qildi. Badiiy asarlar, ocherk, felyeton va boshqa janrlardagi materiallarning bu davr gazetalarida bosilishi, adabiy va

⁵⁸ Yangi Farg'ona. – 1949, 27-fevral.

⁵⁹ Yangi Farg'ona. – 1949, 24-avgust..

⁶⁰ Yangi Farg'ona. – 1949, 28 avgust.

⁶¹ "Tazkira i Qayyumiy"ning 3-jild, 668-sahifasida ham Mavzun haqida ma'lumot keltirilgan.

jurnalistika janrlarining shakllanish jarayonlarida “Yangi Farg‘ona” gazetasi muhim ahamiyatga ega bo‘lganligini ko‘rsatadi. ayni yangi davrdagi Qo‘qon muhiti adiblar ijodi ham o‘z o‘rniga ega bo‘ldi.

1940-yillardagi Qo‘qon adabiy muhiti manzarasi ilmiy adabiyotlarda uchramas edi. Mazkur ishimizda ko‘plab gazeta jildtaxlamlari va boshqa manbalar asosida ushbu davrning ijodkorlari va muhit haqida ma‘lumotlar yig‘ildi va bu davr Qo‘qon adabiy muhiti vakillari, adabiy jarayon haqida obzor yaratildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. “Yangi Farg‘ona” gazetasining Qo‘qon Adabiyot muzeyida saqlanayotgan 1941, 1947, 1948, 1949 - yillar jildtaxlamlari.
2. <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/adabiyot/naim-karimov-ezoz-va-jazo-1990/>
3. Abadiyat daraxti. Drevo vechnosti. Kollektiv to‘plam. – Toshkent: Adabiyot va san‘at, 1989. – B.24, 50.
4. Gulbahor Said G‘ani. Charxiyning “Telefon”i necha marta yozilgan? // “Sharq yulduzi”, 2021. - №9. – B.155-157.
5. Imomnazarov M. “Akademik Azizxon Qayumov maktabi”. – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2010. – B.183.
6. Karimov N. E‘zoz va jazo. // “Fan va turmush”, 1990-yil. – № 10.
7. Qayyumov Po‘lodjon domullo. Tazkirai Qayyumiy. 3-jild. - Toshkent, 1998. – B.662, 664-668.
8. Muhamedov M. Inson madhi // O‘tkir edi qalami. – Toshkent: O‘zbekiston, 1965. – B.7-16.
9. Rasul Muhammadiy. Kurash bilan o‘tgan umr // O‘tkir edi qalami. – Toshkent: O‘zbekiston, 1965. – B.81